

BUGUNGI KUNDA O'ZBEKISTON KELAJAGI UCHUN 6 ENG KATTA MUAMMO

Komilov Bunyod Xamid o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti 2-kurs talabasi

bunyodkomilov111@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunda dunyo juda keskinlik bilan, ham rivojlanib ham qulab bormoqda. Ko'z oldimizda katta davlatlar tanazzulga uchrab, kichik davlatlar yuksalmoqda. Xo'sh shunday qiyin vaziyatlarda davlatni saqlab qolish uchun nima qilish kerak, qaysi yo'llar orqali biz iqtisodiy inqirozdan va siyosiy to'qnashuvlardan cheklanishimiz kerak. Albatta har bir davlat o'z siyosiy boshqaruvidagi xatolarni va kamchilklarni ko'rishi va ularga yechim topishi kerak bo'ladi. Butun dunyoda bo'layotgan urushlar va davlatlar orasidagi kelishmovchiliklar bizni ko'zimizni ochgan holda siyosat yurgizishga majbur qiladi, davlat har qanday siyosat olib bormasin bu siyosat davlatning o'zi uchun xizmat qilishi kerak bo'ladi, agar tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan kelishuvda, 49/51 nisbatda sizga nisbatan zararga yetaklasa bu kelishuvdan voz keching chunki " Kichkina teshik katta kemani cho'ktira oladi". Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida kelajagiga katta ta'sir etadigan bir qancha muammolar bor va ularni xalq etish uchun bizga eng qulay yo'llar kerak boladi. O'zbekistonda hozir bizga kichik ko'ringan ammo kelajakda katta zarar yetkazadigan muammolar bor, masalan:*

- ❖ *Suv taminoti muammosi*
- ❖ *Oziq-ovqat xavfsizligi muammosi*
- ❖ *O'sib kelayotga yoshlardagi diniy bilim muammosi*
- ❖ *Qonunchilikdagi muammo*
- ❖ *Ta'lim tizimidagi muammo*
- ❖ *Ijtimoiy tarmoqlar erkinligi muammosi*

Kalit so'zlar: *Suv muammosi, Ta'lim muammosi, Facebook tarmog'i, Arab bahori, Orol dengizi, Qo'shtepa kanali*

Yuqorida ko'rsatilgan ushbu muammolar har qanday davlat uchun muhim bo'lgan sifatlar, va davlatlar qudratli va mustaqil siyosatga ega bo'lishi uchun aynan shu yo'nalishlar nazoratiga ega bo'lishi kerak. Davlat bu katta ssenariyga ega bo'lgan teatr va unda bir aktyorning yomon ijrosi tufayli film sifati pasayadi ammo u davom etaveradi, ya'ni davlatni qulatish va tanazzulga uchratish biz o'ylaganchalik oson va tez bitadigan narsa emas va bir necha inson yoki xalqning o'limi orqali ham tugatiladigan nozik tizim emas, davlatni

yo'q qilish uchun yillar va ko'p qurbonlar talab etiladi. Ammo bazi davlatlar o'z o'zini yemirib tugatadi, bunga uning boshqaruvidagi noto'g'ri yondashuv sabab bo'ladi. Davlat har qanday boshqaruv tizimida bo'lmasin demokratik yoki avtoritarizm rejimida u o'z ichki tuzulmasidagi kamchilikratni to'ldirishga majbur, yoki bo'lmasin bu kamchiliklar davlatni ichidan yemirib tugatadi yoki davlat o'z xalqi tomonidan tugallanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O'zbekistonda suv muammosi keskinlik bilan ko'payib bormoqda, bu esa barcha sohalarga ta'sir ko'rsatadi, masalan oziq- ovqat mahsulotlarini yetishmasligi va juda qimmat narxlarda sotilishi, oxiri ko'rinmaydigan navbatlar, yangi tug'ulgan bolalar uchun kerakli bo'lgan sut va sut mahsulotlarini yetishmasligi, va ularning juda qimmat narxlarda ekanligi va oddiy oholi qurbi yetmaydigan darajaga chiqishi shu jumlasidan bo'ladi. Yuqoridagi deyarli barcha ko'rsatkichlar hozirda O'zbekiston hududida yuz bermoqda. Qorni och bo'lgan xalqni boshqarish, qorni to'q bo'lgan xalqni boshqarishdan qiyinroqdir, agar davlat ichida oziq-ovqat yetishmasligi bo'lsa va xalq ochlikdan qiynalsa, ta'lim, ma'daniyat kabi sohalarga katta pul ajratish va e'tibor berish be'foyda, chunki xalq faqat qorni to'q bo'lganda eshitadi, agarda buni teskarisi bo'lsa yuritayotgan siyosatni xalq uchun mutlaqo qizig'i yo'q. O'zbekistonda suv bilan bog'liq muammolar 1980-yildan buyon davom etmoqda, birinchi bosqich hammaga ma'lum bo'lgan Orol dengizining qurishi bilan bog'liq, ammo bugungi kunga kelib O'zbekistondagi eng katta ikki daryo Amudaryo va Sirdaryo oqimlarini qurib borishi qishloq qo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. 2018- yildan buyon paxta siyosatidan voz kechish ya'ni paxta ekin maydonlarini kamaytirish va ularni o'rniga intensiv bog'lar joriy etish, yo'nalishlari qo'llanildi, 2020- yilgacha daryo suvlaridan "nasos" orqali suvlarni tortib olish taqiqlandi ham ammo bu qonunlar sholi, lo'vya, lavlagi kabi qishloq xo'jaligi ekinlarini naxlarini ko'tarilib ketishiga olib keldi va davlat bu taqiqlarni olib tashlshga majbur bo'ldi. Suv yetishmovchiligini taqiqlar bilan yengib bo'lmaydi, cheklov hech qachon yechim emas, bu muammoni hal qilish uchun yangi shartnomalar va yangi kelishuvlar kerak. Kelishuvlar ham faqatgina so'zlar orqali emas balki hujjatlar orqali bo'lishi kerak chunki siyosatda so'zlar emas hujjatlar gapiradi. O'zbekistoning hozirgi suv zaxirasi 53 ming kub metrni tashkil qiladi, ammo talab esa 62 ming metr kub. Bundan tashqari suvning ifloslanishi yildan yilga oshib bormoqda, bu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 0,8% ga tashkil etadi. Bugungi kunga kelib biz uchun qo'shimcha muammo bo'layotgan Afg'onistondagi yangi "Qoshtepa" kanalini qurulayotganligi bo'ldi. Bu kanal 2022-yilning 31- dekabr kuni taqdim etilgan edi va 6 yil davomida qurulishi ko'zda tutilgan. Umumiy hisobda 684 mln dollarni tashkil etadigan kanal 285 km uzunlikga ega. Hozirda

Afg'onistonning milliy taraqqiyot tashkiloti ishni boshlab yuborgan va Afg'oniston bu kanal orqali 3 ta viloyatni suv bilan ta'minlamoqchi, ammo buning ortidan O'zbekistonning Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikalariga umuman suv yetib bormasligi aniq bo'ladi. Transchegaraviy suvlardan foydalanish bo'yicha Afg'oniston bilan hech qanday hujjatlar yo'q bu ham bir qancha muammolarni tug'diradi ammo 1980-yilda SSSR da o'rnatilgan suv taminoti bo'yicha bir qancha normalar mavjud va unga ko'ra daryoda qancha suv oqishidan qat'iy belgilangan kvotalar bo'yicha taqsimlanishi kerak bo'ladi, ammo endi SSSR yo'q, Afg'oniston bu kvotalarga amal qiladimi buni hech kim hozircha bilgani yo'q. Bugungi kunga kelib Amudaryoga 44 kub suv bir yilda oqib kelmoqda bu ko'rsatkich 2014 yilda 32 kubni tashkil etgan, O'zbekistonda 2016-yil hukumat almashgandan keyin qo'shni davlatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi va bir qancha kelishuvlarga ega bo'lindi ya'ni O'zbekiston 2017-yili Tojikistonning "Dog'un" suv omborini qurilishi uchun ruxsat berdi va buning evaziga har yilga suv oqimi hajmini ko'tarishga erishdi. Bugungi kunda O'zbekiston hududidagi suv muammosini hal etishni iloji bor va buning yo'li bu Tojikiston davlatidir, chunki Tojikiston bir necha o'n yilliklardan buyon o'z hududida katta suv zaxirasini to'plab kelmoqda, katta extimol bilan shuni takidlash kerak, Tojikiston bu suvlarni o'ta qiyin vaziyatlar boshlangan vaqtda O'zbekiston va Turkmanistonga qimmat narxlarda sotmoqchi va buning uchun u qulay vaqtni kutaydi. Sobiq SSSR davrida "bo'lib tashla va hukumronlik qil" g'oyasi asosida chegara hududlari belgilangan va har bir hudud o'z ahamiyatiga ega bo'lgan sohaga mo'ljallangan, ya'ni bir davlat suv ustidan hukumronlik qiladi, yana bir davlat katta ekin maydoniga ega, yana bir davlat transmilliy yo'llar afzalligiga ega. Bularning barchasi bu davlatlar bir biri bilan urshlar va kelishmovchiliklar keltirib chiqarish uchun rejalashtirilgan. O'zbekiston bu muammolarni yechish uchun Tojikiston davlati uchun ko'plab yozilmagan imtiyozlarni berdi, masalan, chegara hududlaridagi to'siqlarni olib tashlash, O'zbekistondagi abituriyent Tojikiston hududida ta'lim olishi, kabi imtiyozlar, ammo O'zbekiston uchun haligacha sezilarli darjada imkoniyat berilmadi, ayniqsa suv taminoti borasida. Agarda Afg'oniston, Amudaryoning suvlaridan foydalanmoqchi bo'lsa, Tojikiston bilan Amudaryoning suvlarini ko'paytirish bo'yicha kelishuvga erishishi kerak, chunki hozirgi oqayotgan suvlar O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi kelishuv natijasidir.

Har qanday davlatda faqatgina bitta muammo bo'lmaydi, bir muammo keyingi muammoni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimidagi muammolar va kamchiliklar bugungi kunda ma'lum bir ma'moda kamaymoqda, ammo haligacha ko'plab tizimlarda kamchilik bor. Hattoki suv muammosi ta'limdagi kamchiliklarni ko'paytirdi ya'ni, 2016-yil O'zbekistonda hukumat

almashgandan keyin qo'shni davlatlar bilan a'loqalar tiklandi va bu albatta yaxshi natijalar berdi, lekin 2018 –yildab boshlab ko'plab abituriyentlar Tojikiston davlatiga o'qish uchun joylasha boshladi. 2019-yil mart oyida Markaziy Osiyo hududiga "Covid19" virusini kirib kelishi tufayli barcha qo'shni davlatlardagi talabalar imtixonsiz O'zbekiston universitetlariga qabul qilindi. 2020 va 2021-yil esa O'zbekistondagi abituriyentlar qo'shni davlatlarga o'z hujjatlarini topshira boshladi, 2018-yil Tojikistondagi talabalar 40 nafarni tashkil qilardi, 2021 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 63 mingdan oshib ketdi. Bu ko'rsatkichlar faqat bir davlatda ekanligi va boshqa davlatlarda ya'ni Qozog'iston va Qirg'izistonda ham huddi shunday ko'rsatkich borligi esdan chiqarmasligimiz kerak. Xo'sh qo'shni davlatlardagi bunday turdagi ta'lim tizimi bizga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin va biz nimalar qilishimiz kerak?

- 1- Qo'shni davlatlarda ta'lim sifatini o'ta pastligi.
- 2- Chet eldan kelgan talabalarga e'tibor yo'qligi.
- 3- Diplomi O'zbekiston hududida amal qilmasligi.
- 4- Har bir talaba o'zi bilan o'rtacha 2 000 dollar pul O'zbekiston hududidan olib chiqib ketishi va bu pullar qaytib kelmasligi.
- 5- Kelajakda talabalar O'zbekistonga qaytib kelganda katta ishsizlik kelib chiqishi.
- 6- Qo'shni davlatlarda ta'lim sifati pasligi tufayli malakasiz mutaxassislar yetishib chiqishi.

Yuqoridagi ko'rsatilgan barcha aktorlar O'zbekistonning buguni va kelajagi uchun katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu omillarni kelib chiqishida bizning ham aybimiz bor. Taxlil qilgan holatda bu qayerda xato qildik degan savolni o'zimizga berishimiz kerak, nima uchun ko'plab talabalar qo'shni davlatda o'qishni maqul ko'ryabdi;

- 1-O'zbekiston oliy ta'limida kontrakt narxi baland ekanligi.
- 2-O'qishga kirish imtixonlari qiyin ekanligi.

Bu ikki omil, ko'plab yoshlarni qo'shni davlatlarga ta'lim olish uchun ketishiga majbur qilmoqda. Qo'shni davlatlarda esa yoshlar sifatsiz ta'limga duch kelishmoqda va natijada kelajakda o'z kasbini chuqur egallamagan mutaxassislar yetishib chiqadi. Bu muammolarga yechim topishimiz uchun biz O'zbekistonda kontrakt miqdorini pasaytirishimiz va o'qishga kirish imtixonlarni soddalashtirishimiz kerak yoki umuman imtixonlarsiz qabul jarayonini joriy etishimiz kerak va imtixonlarsiz qabul qilingan talaba har bir kurs davomida qattiq sinovlarda o'tishini joriy etish, sinovlardan o'ta olmagan talabalar o'qishdan chetlashtirish qoidalarini joriy etish kerak. Shundagina haqiqiy bilimli talabalar yuqori kurslargacha yetib boradi va yuqori bilimga ega mutaxassislar yetishib chiqadi.

Yuqoridagilardan tashqari o'qtuvchilarga beriladigan oylik haqqi kamligi ham ta'lim sifatiga ta'sir etadi. 2023- yil O'zbekiston hududida o'qtuvchilarga beriladigan oylik maosh o'rtacha 3 000 000 so'mni tashkil qiladi. Bu ish haqqi hozirda O'zbekiston hududida kam hisoblanadi va ko'plab pedagoglar bundan norozi bo'lgan holatda chet davlatlarga chiqib ketmoqda, chunki hozirgi iqtisodiy holatdan kelib chiqqan holda bu maoshga yashash qiyin deb hisoblanadi. Shu o'rinda takidlash lozimki ishchiga qiladigan ishiga yarasha pul bermasang ishchi seni beradigan pulinga yarasha ishlay boshlaydi. Xitoylik mashhur aktyor va sportchi Bryus Li bir jurnalist bilan bo'lgan savol-javob vaqtida, unga shunday savol beriladi; janob Bryus siz nega ilm-fan yo'lida emas sport yo'lida ketdingiz?, shuda u javob bergan; Men yoshligimda juda matematikaga qiziqar edim, ammo bir kuni bozorda ketayotganimda matematika o'qtuvchimni darslardan so'ng kartoshka sotib o'tirganini ko'rdim va men shunda ilm-fan meni boyitmasligini tushunib yetdim!- deb javob bergan.

O'sib kelayotgan yoshlardagi diniy bilim muammosi bugungi kunda xalq orasida juda ko'p marotaba ko'rinib kelmoqda. Bu esa yoshlarni turli xil oqimlarga qo'shib qolishi va noto'g'ri yo'llarga ketishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, 2022 yilda 14 dan ortiq yoshlar turli xil diniy maruzalarni tarqatganlari uchun sudlangani va yana bir necha yoshlar islomiy nashidalar (diniy qo'shiq) tarqatganligi uchun sudlangani bizga ma'lum. Bizdagi muammo bunday vaziyatdan qanday chiqsa bo'ladi. Avvalo bir omilni tushunib olishimiz kerak bo'ladi ya'ni cheklash bu yechim emas, biz bunday qonun buzarlari deb qarayotgan yoshlar davlatning kelajagi hisoblanadi va ularni qamoqqa solish va jazolash bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Bir omil muqarrar, O'zbekistondan diniy oqimlarga qo'shib chiqib ketayotgan yoshlar bu O'zbekiston uchun kelajakni 1% ga kamaygani yoki dushmanlarni 1% ga oshgani bo'lishi mumkin, shuni hisobga olgan holda davlat o'z oldiga vazifa qo'yish kerak. Agarda vaziyat shuni taqazo qilsa biz din va siyosatni bir biridan ajratgan bo'lsak ham, davlat o'z siyosiy boshqaruviga muammoni hal etish uchun ta'limga dinshunoslik darsliklarini qo'yish kerak bo'ladi. Boshqalar bizning yoshlarimizga noto'g'ri ma'lumotlarni berishidan oldin biz yoshlarga to'g'risini berishimiz kerak va zarur.

Qonunchilikdagi muammolar bu konstitutsiyadagi moddalarning yetishmasligida emas, balki aynan shu modda va qarorlarda kamchiliklar borligida. Asosiy kamchilik tadbiriq qilinayotgan qarorlar mohiyatida chunki bugungi kunga kelib qonunda belgilangan normalar bo'yicha agar bir shaxs boshqa bir shaxsni qilgan jinoyatini tegishli joylarga xabar bersa undirilgan jarimani bir qismi xabar bergan shaxsga tegadi. Bu aholi orasida ma'lum bir

ma'noda qonun buzarlilklarni kamaytirishi mumkin ammo buning salbiy oqibatlarini keltirgan foydasidan ko'proq. Bugungi kunga kelib xalq orasida insonlar bir birini qilgan jinoyatlarini oshkor qilishi judayam yuqori darajaga yetdi va odamlar bu yo'llardan jamiyatdagi tinchlik uchun emas balki undirilgan jarimadan olinadigan pul uchun qilinmoqda. Shu kungacha O'zbekiston xalqi orasida bu qarorlar to'g'risida ko'plab noroziliklar va to'qnashuvlar bo'lib o'tdi, bu borasida ko'pchilik bu holat vaqtincha insonlar ko'nikib ketadi degan fikrlarni berishdi, ammo muammo ham shunda, insonlar bir birini ayblarini pul evaziga sotishi bu xalq orasida sotqinlikga ko'nikishga olib keladi. Barcha yomon illatlar odatiy xolga aylanib qolishdan boshlanadi va bugungi kunga kelib insonlar bir birini pul evaziga ayblarini oshkor qilishi bir kun kelib davlat uchun ham katta muammo tug'diradi, ya'ni bir kun kelib xalq o'z vatanini pul uchun sotishi mumkin. Bugun biz o'z qonunlarimiz bilan xalq bir birini sotishiga o'rgatib qo'ysak, shu xalq bir kun kelib o'z vatanini ham sotishi mumkin. Misol uchun hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi tarixida "Buyuk Xitoy devori" qurilishi vaqtida imperiya tomonidan shunaqa qaror chiqarilgan, qarorga ko'ra devor qurilishida ishtirok etayotgan ishchilarni ishlamasdan dam olib o'tirgan ishchini ushlab bergan shaxs ish haqqi oshirilgan va aybdor esa qatl etilgan. Bu qaror juda uzoq vaqt davomida bu qaror o'z kuchida qolgan va xalq bunga ko'nikib qolgan. Xitoy Buyuk Xitoy devori qurilganidan so'ng 3 marotaba bosib olingan va ularning birida Xitoy darvozalari o'z xalqi tomonidan 9 qop guruch evaziga ochib berilgan edi. Xitoy ulkan qurulish qilgan edi, ammo eng asosiysi xalqning vatanparvarlik ruhi uchun e'tibor bermay qo'ygan va xalqni sotqinlikga o'rgatib qo'ygan edi. Bizda ham shunday vaziyat bo'lmasligi uchun qonunlardagi bazi bir qismlariga o'zgartirish kerak ya'ni mayli odamlar qonun buzarlilklarni ko'rganda tegishli joylarga arz qilsin, lekin pul uchun emas, shundagina kim taraqqiyot uchun yana kim pul uchun bunday ishlarni qilayotgani yaqqol ko'rinadi.

Ijtimoiy tarmoqlar erkinligi muammosi bu davlat ichidagi har xil elektron chatlar, saytlar, platformalar kiradi. Masalan, Tik-tok, Facebook, You tube, Instagram, Twitter, Whatsapp, misol bo'la oladi. Bu tarmoqlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan va katta qamrovga ega. Juda ko'p insonlar bu tarmoqlardan foydalanadi, shu jumladan juda ko'p odamlar bu tarmoqlar asiriga aylangan. Dunyoda yangi hokimiyat kuchini paydo bo'lishi katta o'zgarishlarni boshlab berdi, rivojlangan davlatlar aynan boshqa davlat mafkurasiga uchrab qolmasligi uchun mustaqil ijtimoiy tarmoqlarni yaratishga harakat qilishmoqda. Bugungi kunda dunyoda ikki davlat mutlaqo va bir davlat qisman erkinlikga ega bular AQSH va Xitoy mutlaqo mustaqil, Rossiya qisman erkinlikga ega hisoblanadi. Xo'sh bu sohada erkinlik nima uchun kerak degan

savol tug'uladi va bu oddiy ijtimoiy tarmoqlar-ku, odamlar shunchaki bulardan ko'ngil yozish uchun foydalanadi degan javobsiz savollar juda ko'p bo'ladi. Ammo bu fikrlar faqat oddiy odamlarning fikri holos, siyosatchilar esa bunday fikrda emas va ular ijtimoiy tarmoqlarni zamonaviy dunyo atom bo'mbasi deb takidlashadi. Davlatni yo'q qilish uchun yadroviy qurollar va urushlardan foydalaniladi ammo xalqni ishontirish va boshqa oqimga burib yuborish uchun esa internet tizimi juda katta kuch hisoblanadi. Dunyo tarixidan biz ko'plab urushlar va qo'zg'olonlar ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on xabarlar orqali tarqalgani ma'lum. Masalan, 2010-yilda boshlangan "Arab bahori" namoyishlari oddiygina Facebook tarmog'i orqali boshlanib ketgan edi, davlat bunday vaziyatda mustaqil axborot tizimiga ega emasligi katta yo'qotish bo'ladi chunki davlat o'zi istamagan holda boshqa davlatlar propagandasiga tushib qolishi mumkin.

Har qanday davlat rivojlanishi uchun o'z ichki tuzulmasidagi muammolarni ko'ra bilishi kerak, zero muammolarni toppish bu 50% yechim degani. Davlat qanchalik kuchli bo'lmasin agar, ta'limga, suv taminotiga, oziq ovqat ta'minotiga, yoshlarning vatanparvarlik hissiga e'tibor bermas ekan bu davlat, ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan rivojlanmaydi. Bugungi kunda O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilishga va aloqalarni tiklashga urinmoqda bu juda katta yutuq, chunki bazi bir katta davlatlar endi rivojlanayotgan davlatlarni bir biri bilan ziddiyatlarga uchrashishiga sharoit yaratadi chunki bir necha kichik davlatlarning birlashishi katta kuchni vujudga keltiradi. Garchi katta davlatlar Marlaziy Osiyo davlatlarini birlashishiga qarshi bo'lsada, biz Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy tomondan ham, iqtisodiy tomondan ham, ijtimoiy tomondan ham birlashib, umimiy yakdil bo'lib, muammolarni birga bartaraf etishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samuel Xantington "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi"
2. Maykl Hard "Dunyoning 100 buyuk insoni"
3. https://central.asianews.com/en_GB/articles/cnmi_ca/features/2023/02/16/feature-01
4. <https://reliefweb.int/report/uzbekistan/central-asia-water-and-conflict>
5. <https://thediplomat.com/2019/09/uzbekistans-impending-water-crisis/>